

Shohlarga ham oson emas

Tushlarida ne joylarni ko'rmas odam:
Bobur qabrin kezarmishman kecha oqshom.
Tig'dan yomon agar alam o'tsa jondan,
Uni riyo quvgan asli Andijondan ...
Shohlarga ham oson emas, shoxdarga ham.
Mulki jannat bo'lsa qamki Bog'i Eram,
Besh panjasi bir kaftiga bo'lmasa jam.
O'z yurtida qaydan qursin Tojmahallar,
Shohlarga ham oson emas, shohlarga ham.
She'rim o'qib, dersiz balki, senmiding kam,
Yozganlarim xushomadmas, xudo hakam.
Bo'lar eli bir-birini demasa gar,
Bir mayizni qirqqa bo'lib emasa gar,
Shohlarga ham oson emas, shohlarga ham.
Yurt tuprog'in siz-ku tavob etmassiz ham,
U kimningdir dilidagi yorug' olam.
Sizga misol kerak bo'lsa, ana — Bobur,
U dunyoda eng buyuk shoh va ... musofir,
Shohlarga ham oson emas, shohlarga ham.

Muhammad Yusuf
“Ulug'imsan, Vatanim” kitobidan